

ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARINI TASHKIL ETISHDA FANLARARO INTEGRATSIYADAN FOYDALANISH VA UNING AHAMIYATI.

Mahmudjonova E'zoza Salimovna
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
“O'zbek tili va adabiyoti
“kafedrası magistranti
maxmudjonovezoza@gmail.com
+998 90 910 09 29

ANNOTATSIYA

Ushbu tezisdagi zamonaviy ta'lim texnologiyalarining ustuvor jihatlari, darslarning samarali bo'lishida fanlararo bog'lanishning ahamiyati, yangi tuzilgan va ishlab chiqilgan ona tili va adabiyot darsliklarida barcha fanlar yuzasidan bilimlar berilganligi, ularning dars mavzusi bilan bog'liqligi, ko'p qirrali ekanligi, ona tili va adabiyot fani ustozlari bundan darsning samarali bo'lishida va ilmiyligini ta'minlashda foydalanishlari mumkinligi yoritib berilgan

Kalit so'z: integratsiya, texnologiya, model, ilmiylik, metodika

ABSTRACT

This thesis highlights the priority aspects of modern educational technologies and the importance of interdisciplinary connections in effective lessons.

Key words: integration, technology, model, science, methodology.

Ta'limni integratsiyalash fikri xalq ta'limida tabaqalashtirish va individuallashtirish bilan birga muhokama qilina boshlandi. Agar kichik maktab ta'limini tabaqalashtirish asosida kitob, darslik va boshqa adabiyotlar bilan mustaqil ishlashga tayyorgarlik darajasi hamda kichik maktab yoshida qiziqishlarni faolshakllantirishni taqozo etsa, integratsiyaning asosi qilib, turli fanlarni o'rganish obyektlari bo'lgan ba'zi umumiy tushunchalarni chuqurlashtirish, aniqlashtirish va kengaytirish mumkin. Ta'limni integratsiyalashtirishdan ko'zlangan asosiy maqsad boshlang'ich maktabdayoq tabiat va jamiyat haqidagi tasavvurni yaxshi shakllantirish va ularning rivojlanishi qonunlariga o'z munosabatini bildirishga yo'naltirishdan iboratdir. Asosiy fanlarni o'zlashtirish va olamdagi bor narsalar qonuniyatlarini tushunishda predmetlar ichidagi va predmetlararo aloqalarini o'rgatish ta'limni integratsiyalashga yondashuvning metodik asosidir. Bunga turli darslar tushunchalariga ko'p marta qaytish, ularni chuqurlashtirish va boyitish, shu yoshga tushunarli bo'lgan muhim belgilarni aniqlash orqali erishish mumkin. Shunday qilib, yaxshi shakllangan, tuzish va o'tkazish tartibiga ega bo'lgan, tarkibiga shu o'quv

predmetiga tegishli bo'lgan tushunchalar guruhi kiritilgan harqanday dars integratsiyaga asos qilib olinishi mumkin.

Yangi tuzilgan 5,6,7,10 sinf ona tili darsliklarida integratsion bog'lanish yaqqol ko'zga ko'rinadi. Unda o'quvchi fan doirasida ilmiy bilimga ega bo'lish bilan bir qatorda, o'z dunyoviy bilimlarini ham kengaytirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Buni 6-sinf ona tili darsligidagi "O'z deputatingizni bilasizmi?" bo'limi orqali ko'rib chiqishimiz mumkin. Ushbu yangi 6-sinf darsligidagi bo'lim o'quvchilarning siyosiy, huquqiy bilimni kenagtirishga qaratilgan holda huquq, ona tili, tarix singari fanlarni integratsiyalashtiradi. Bu o'qituvchidan ham siyosiy, ijtimoiy bilimni talab qiladi. Darslikning qulay tarafi o'quvchilar uchun shu sohaga oid audiomatn ham berilganligidir. Dars ijodiy, erkin bo'lishi bilan birga, yaxlit, mantiqan ketma-ket, o'ziga xos o'tish metodologiyasiga ega bo'ladi. Umumiy ta'limning poydevorini qo'yadigan boshlang'ich maktabdagi ko'p tushunchalar tabiatshunoslik, rus tili, musiqa, tasviriy san'at va boshqalar uchun umumiydir. Hozirgi kunda bir qator o'quv predmetlari uchun umumiy bo'lgan tushunchalar orasidagi aloqalarni o'rnatish psixologik va metodik asos bo'lgan integratsiyalangan darslar tizimini ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish lozim. Shu bilan birga predmetlararo aloqalar dars tarkibi darajasida o'rgatilishi va zarur o'qitish vositalari bilan ta'minlanishi kerak. .

Ta'lim sistemasiga integratsiyani kiritish maktab va jamoatchilik o'rtasida turgan ta'lim va tarbiyaga oid vazifalarni hal etishda asosiy vositalardan biridir. Integratsiyalashtirilgan darslar bolalar dunyoqarashida bir butunlikni, voqealar uzviyligini tushunishini tabiatan anglab yetishga o'rgatadi.

Integratsiya- bu fanlarning differensial jarayon davomida yaqinlashuvi va bog'liqligidir. Integratsiya jarayoni fanlar orasidagi aloqani yangi, yuqori sifatda birbiriga bog'lash bosqichi bo'lib, o'zini yuqori ko'rinishda namoyon etadi. Shuni alohida qayd etish kerakki, integratsiya jarayoni asoslari uzoq o'tmishdagi xalq pedagogikasi va ilmiy pedagogikaga asoslangan. Integratsiya fanlararo bog'liqlikdir. Fanlararo bog'liqlik asoslari tabiatni to'la holda o'quv darsliklarda ko'rsatish va tushuntirish zaruratidan paydo bo'lgan. Ulug' didaktik Yan Amos Komenskiy ta'kidlashicha: "Birbiri bilan bog'liq bo'lgan hamma narsa, xuddi shunday holda o'rganilishi kerak". Fanlararo bog'liqlik g'oyasiga keyinchalik juda ko'p pedagoglar yondoshib, uni rivojlanishi va umumlashtirilishiga hissa qo'shdilar. D.Lokk g'oyasiga ko'ra: "Ta'lim mazmunining aniqlanishida bir fan boshqa fanlar elementlari va faktlari bilan to'ldirilishi kerak". Pestalossi bir fanning boshqa bir fandan uzoqlashuvi hatto xavfliligini ta'kidlaydi. Bolgariyalik olimlar tabiiy-ilmiy bilimlarni o'z ichiga olgan, 10-12 yoshli bolalarga mo'ljallangan integratsiyalangan kurs yaratishdi. AQSH o'rta maktablarining katta sinflarida o'z ichiga fizika, kimyo, geografiya, geologiya, kristallografiya, tuproqshunoslik, poletalogiya va shu kabilarni o'z ichiga oluvchi

"Yerni o'rganish" fani kiritilgan. Chexoslovakiyada ham shunday umumlashtiruvchi integratsiyalangan "Fuqaro tarbiyasi" deb nomlangan kurs katta sinflarda kiritilgan.

Ona tilini o'qitish jarayonida ba'zi mavzularning yanada kengroq ko'lamga ega ekanligini tasniflashga xizmat qiladi. Zero, yangilangan darsliklarning vazifasi ham ana shu maqsadga qaratildi, deyishimiz mumkin. Bu darsliklarda qiyin va murakkab, o'quvchilar uchun zerikarli qoidalar va mashqlardan voz kechildi. Avvalo, o'quvchi diqqatini tortish uchun qiziqarli rasmlar hamda ularga mos matn va mashqlar ham o'quvchini dars jarayoniga majburiy tarzda emas, balki o'zi qiziqqan holda kirishib borishiga xizmat qiladi. Xususan, ona tili fani darsliklarida ham har bir bob ona tilining turli fanlar bilan bog'liq holda o'rganishga qaratilgan. Masalan, ona tili fanining tibbiyot bilan ("Shifoxona", "Jigar – eng mehnatkash a'zo"), ekologiya bilan ("Global isish", "Qayta ishlanadigan chiqindilar"), informatika va axborot texnologiyalari bilan ("Kompyuter grafikasi", "Ko'z nurini asraylik"), iqtisodiyot bilan ("Eksport yoki import", "Soliqlarni to'laborasizmi?"), huquq fani bilan ("Konstitutsiya – bosh qomusimiz"), tarix fani bilan ("Buyuk ipak yo'li", "Minorayi Kalon", "Oqsaroyga bitilgan hikmat"), fizika fani bilan ("Fizika hayotni yengillashtiradi", "Elektromobil"), san'at bilan ("Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivali, "Mualliflik huquqi") va boshqalar. Bunday xilma-xil mavzular asosida o'rganilgan darslar o'quvchilarning dars o'zlashtirishiga ijobiy hissa qo'shadi.

Avvalo, ona tili va matematika fanlarining aloqadorligi deganda, bevosita son so'z turkumi ongimizda anglashiladi. Haqiqatan ham "son" har ikki fanning ham o'rganish obyekti sanaladi. Matematika fanida "sonlar" fanning asosini tashkil etsa, ona tili fanida ham sonlar alohida turkum sifatida keng o'rganiladi. Ona tili fani sonning tuzilish jihatini, ma'no turlarini, yasalishi, gapdagi o'rni kabilarni keng o'rganadi. Matematik atamalarni o'rganib boorish natijasida bola ongida ilmiy terminlar lug'ati kengayib boradi. Bundan tashqarimasalalar yechish va mukammal o'rganib olishi mumkin. Masalan,

$$10 > 6; 2 < 6; 6 = 2 \cdot 3 \quad 6 + 6 = 3 \cdot 4 \quad 18 + 18 = 4 \cdot 9$$

Ushbu tengsizliklarda "> - katta", "< - kichik" yoki "= -teng" kabi sifatlar taqqoslashga xizmat qiladi va bu ishoralar sifat turkumidagi so'zga teng kelishi haqidagi tushuncha o'quvchi ongida bir umr saqlanib qoladi. Bundan tashqari kichik son ($6 > 2$) chiqish kelishigida (olti soni ikki sonidan katta), katta son esa bosh kelishikda (o'n katta oltidan), tengliklarda esa "teng" so'zi jo'nalish kelishigini talab qilishi (oltiga teng) ni misollar orqali tushuntirishimiz mumkin.

XULOSA

Ta'lim jarayonida ona tili fanini aniq fanlar, xususan, matematika, informatika kabi fanlar uyg'unligida o'qitish ushbu fanning ma'no-mohiyatining yanada kengroq ochilishiga yordam beradi. Bundan tashqari, ta'lim samaradorligi ham fanlar hamohangligi asosida ochib berilishi ushbu fanlar uzviyligini ta'minlab beradi. Bir

qarashda ona tili va aniq fanlarning o‘rtasida hech qanday aloqadorlik yo‘qday tuyuladi. Lekin barcha fanlar bir-birini o‘zaro taqozo etadi. Buni yangilangan darsliklar misolida ham ko‘rishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent:-2009. “Nosir” nashriyoti.
2. G‘ulomov A., Qodirov M., Ernazarova M., Bobomurodova A., Alavutdinova N., Karimjonova M. Ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent-2012.
3. Sodiqov Q. Turkiy til tarixi. Toshkent:-2009. Toshkent davlat Sharqshunoslik instituti.
4. Abdurahmonov G‘., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. Toshkent:-2008. “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti”.
5. Iskandarova Sh. Til sistemasiga maydon asosida yondashuv. – Toshkent: F 2007